



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bar-On, R. (2006). The Bar-On model of emotional-social intelligence (ESI). *Psicothema*, 18, 13-25.
2. Zins, J. E., Weissberg, R. P., Wang, M. C., & Walberg, H. J. (2004). *Building academic success on social and emotional learning: What does the research say?* Teachers College Press.
3. Bloodworth, M. R., & Walberg, H. J. (2007). Emotional intelligence and academic achievement: A meta-analytic review. *Educational Psychology Review*, 19(2), 119-135.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
5. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). What is emotional intelligence? In *Emotional development and emotional intelligence: Implications for educators* (pp. 3-31). Basic Books.
6. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. *Child Development*, 82(1), 405-432.
7. Abduvakilovna, K. U. (2022). OLIY O'QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI. *Journal of new century innovations*, 19, 95-98.
8. Rahmatullayeva, M., Qoraqulova, U., & Xaydarqulov, H. (2023). TALABALARDA QANDAY ISHLASH YOKI O'QITUVCHI-PSIXOLOG VA PSIXOLOGLAR HAQIDA TADQIQOT. *Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya jurnali*, 3 (1).
9. Abduvakilovna, K. U., Qizi, G. U. S. M., & Qizi, A. G. A. (2023). OQUV JARAYONIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TOMONLARI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 1(1), 766-769.
10. Umida, K., & Qizi, R. A. Z. (2023). TALABA-YOSHLARNI IJTIMOY OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI BAHOLASHDA MATNLI MATERIALLARNING DIDAKTIK AHAMIYATI

Mamanova Sayyora Faxriddinovna

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktoranti

sayyoramamanova94@mail.com

Annotatsiya: Maqolada professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini baholash jarayonida matnli materiallarning didaktik

ahamiyati tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiya — bu o'quvchilarning o'z fikrini aniq, ravon va mantiqiy ifoda etish qobiliyatidir. Maqolada matnli materiallarning o'quv jarayonida o'rgatish va baholashda qanday vosita sifatida foydalanilishi, ularning mazmuni va metodik jihatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, nutqiy kompetensiya, matnli materiallar, didaktik ta'minot, nutqiy kompetensiyani baholash.

Zamonaviy professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining malakasini oshirishda nafaqat amaliy ko'nikmalar, balki nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Nutqiy kompetensiya — bu o'quvchilarning fikrlarini aniq va ravon ifoda eta olish qobiliyati bo'lib, kasbiy sohada samarali muloqot qilish uchun zarurdir [1]. Matnli materiallar esa nutqiy kompetensiyani shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular o'quvchilarga fikrlarni tizimli ravishda ifoda etish, professional kontekstda muloqot madaniyatini rivojlantirish imkonini yaratadi. Didaktik ta'minot vositalari yordamida mazkur materiallarni samarali qo'llash esa o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Nutqiy kompetensiya — shaxsning nutq orqali fikrlarni aniq, ravon va mantiqan to'g'ri ifoda etish qobiliyati, o'z fikrini tinglovchilarga tushunarli tarzda yetkazish san'atidir. Bu kompetensiya shuningdek, professional muloqotda o'zini tutish, so'z boyligi va grammatika qoidalarini to'g'ri qo'llashni o'z ichiga oladi. Nutqiy kompetensiya rivojlangan shaxs o'z sohasida samarali va ishonchli kommunikator bo'la oladi [1].

Matnli materiallar – o'quvchilarga nutqni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Matnlar yordamida o'quvchilar yangi so'zlar va iboralarni o'rganib, ularni nutqda qo'llash ko'nikmasini hosil qiladi. Shu bilan birga, matnlar muloqot madaniyati va kasbiy kontekstni chuqurroq anglashga yordam beradi [3].

Didaktik ta'minot — bu o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun mo'ljallangan o'quv-metodik va axborot vositalari majmuasidir [2]. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda didaktik ta'minotga matnli materiallar, interaktiv mashg'ulotlar, multimediya vositalari kiradi. Yaxshi tashkil etilgan didaktik ta'minot o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, o'z-o'zini baholash imkonini beradi va nutqiy ko'nikmalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- tilning fonetik va intonatsion to'g'riligi;
- grammatik to'g'rilik va so'zlashuv madaniyati;
- fikrni mantiqan to'g'ri va aniq ifoda eta olish;
- nutqning mavzu doirasida bo'lishi va kommunikativ vazifaga mosligi;
- so'z boyligi va terminologiyadan foydalanish darajasi [1].

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun matnli materiallardan foydalanishning didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega [2]. Quyida ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha bir nechta amaliy tavsiyalar keltiriladi:

1. Matnlarni kasbiy soha va o'quvchilarning darajasiga mos tanlash: Matnli materiallar o'quvchilarning bilim darajasi va kasbiy yo'nalishiga muvofiq bo'lishi

kerak. Murakkabligi va mazmuni o'quvchilar uchun tushunarli, ammo yangi so'z va iboralarni o'z ichiga olgan bo'lsa, nutqiy ko'nikmalar yanada samarali shakllanadi.

2. Matnlarni o'rganishda interaktiv usullarni qo'llash: Matnli materiallarni faqat o'qish bilan cheklamasdan, o'quvchilarni muhokama, rol o'ynash, guruh ishlari orqali nutqiy mashg'ulotlarga jalb qilish kerak. Bu nutq madaniyatini oshirish va fikrlarni erkin ifoda etishga yordam beradi.

3. Matn asosida fikrlarni tahlil qilish va taqdim etish mashqlarini tashkil etish: O'quvchilarga matnni o'qib, uning asosiy mazmunini qisqacha bayon qilish, fikrlar ketma-ketligini izohlash, savollarga javob berish kabi vazifalar berish zarur. Bu mashqlar mantiqiy fikrlash va aniq ifoda etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

4. Kasbiy terminologiyani o'rgatish va uni nutqda qo'llashni rag'batlantirish: Matnlarda kasbiy soha bilan bog'liq atamalarni ko'proq qo'llash, ularni tushuntirish va nutq mashg'ulotlarida faol foydalanishni rag'batlantirish nutqiy kompetensiyani yanada chuqurroq shakllantirishga yordam beradi.

5. O'z-o'zini baholash va o'zaro baholashni joriy etish: O'quvchilarni nutqiy chiqishlarini baholashda o'z-o'zini va sinfdoshlarini baholash metodlarini qo'llash tavsiya etiladi. Bu usul o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va o'z nutqini yaxshilashga qiziqishni oshiradi.

6. Texnologiyalarni didaktik ta'minotga integratsiyalash: Kompyuter, planshet va boshqa multimedia vositalaridan foydalanib, interaktiv matnli materiallar yaratish va nutq mashg'ulotlarini qiziqarliroq qilish mumkin. Bu o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi [2].

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish — ularning kasbiy tayyorgarligi, muloqot madaniyati va ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan asosiy omillardan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, matnli materiallar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishda, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda va kasbiy atamalarni o'zlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada matnli materiallardan foydalanishning didaktik jihatlari tahlil qilindi va nutqiy kompetensiyani baholashda ularning ahamiyati asoslab berildi. Taklif etilgan amaliy tavsiyalar, xususan, kasbiy yo'nalishga mos matnlarni tanlash, interaktiv usullarni qo'llash, terminologik lug'at ustida ishlash, o'zaro baholashni joriy qilish kabi yondashuvlar ta'lim jarayonini samaraliroq tashkil etishga yordam beradi.

Shunday qilib, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda matnli materiallardan puxta va tizimli foydalanish nafaqat o'quvchilarning individual rivojiga, balki umumiy kasbiy tayyorgarlik sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yo'nalishda izchil ilmiy-amaliy ishlar olib borilishi va didaktik ta'minot vositalari yanada boyitilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova D.X. *Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi*. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti, 2021.

2. Abdullayeva N. *Matn asosida o'quvchilarda muloqot kompetensiyasini shakllantirish*. – Toshkent: Til va adabiyot ta'limi jurnali, 2019. №3.

3. Xodjayev B. *Professional ta'limda kommunikativ yondashuv asoslari*. – Toshkent: TDPU, 2020.

4. Nazarova M. *Kasbiy muloqot va uning o'quv jarayonidagi ahamiyati*. – Toshkent: Oliy ta'lim muassasalari axborotnomasi, 2018. №2.

5. S.Ashurova, S.Mamanova WAYS TO DEVELOP SPEAKING ACTIVITY OF VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS “International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research” ISSN - 2181 3884. 2023

6. Маманова С. Методика развития речевой компетентности у студентов профессионально-технических учебных заведений //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4

PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKADA ZAMONAVIY METODLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Xolbekova Dinora Faxriddin qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali magistranti

dinoraxolbekova@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida inson hayoti, ta'lim tizimi va jamiyat taraqqiyoti uzluksiz yangilanib bormoqda. Ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanar ekan, insonlarni tarbiyalash, ularga bilim berish va hayotga tayyorlash jarayonlari ham zamonaviy metodlar asosida tashkil etilishi zarur bo'lib qoldi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, Innovatsion metodlar, Interfaol usullar, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Virtual ta'lim, Masofaviy o'qitish, Multimedia vositalari, Simulyatsiya va virtual reallik, Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, Kreativ pedagogika, Psixologik treninglar, Ko'rgazmali qurollar, Gamifikatsiya, Elektron resurslar, Test va diagnostika dasturlari, O'quv jarayonini individuallashtirish, Interaktiv platformalar.

Psixologiya va pedagogika fanlari hamisha insonni tushunish, unga yordam berish, uni hayotga, mehnatga va jamiyatga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Lekin faqatgina an'anaviy yondashuvlar bugungi kunda yetarli emas. Yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlari zamonaviy axborot oqimi bilan bog'liq. Demak, psixologiya va pedagogikada ham yangi metod va texnologiyalarni joriy etish davr talabi hisoblanadi.

Shu maqolada biz zamonaviy metod va texnologiyalarni ijobiy yondashuvda ko'rib chiqamiz. Maqsadimiz – ilmiy murakkablikka berilmasdan, hayotiy misollar orqali ta'lim va tarbiyada ulardan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatishdir.

1. Zamonaviy metodlarning ahamiyati

Metod – bu maqsadga erishish yo'li. Ta'limda zamonaviy metodlar deganda interfaol yondashuvlar, kichik guruhlarda ishlash, bahs va munozara asosidagi o'qitish, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tushuniladi.

Psixologiyada esa metodlar odamlarning ichki dunyosini anglash, ularga motivatsiya berish, stressni kamaytirish va muammolarni hal etishga yordam berish